



**O'ZBEKISTONNING 2030-YILGACHA BO'LGAN SUV XAVFSIZLIGI  
STRATEGIYASI: IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA RESURSLAR  
BOSHQARUVI VA SAMARADORLIK YECHIMLARI**

*Navoiy innovatsiyalar universitetining iqtisodiyot  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

***Karimova Dilfuza Dilshod qizi.***

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*” Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari ” kafedrası o`qituvchisi*

***Ochilova Dilnoza Ismoilovna***

***Annotatsiya:*** ushbu maqolada O'zbekistonning suv resurslari hozirgi holati, 2030-yilgacha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv xavfsizligi muammolari, iqlim o'zgarishi oqibatida shakllanayotgan tahdidlar hamda qishloq xo'jaligi, sanoat va aholining suvga bo'lgan talabi tahlil qilinadi hamda irrigatsiya tizimining samaradorligi, suv resurslarining boshqaruv darajasi, suv tejash texnologiyalarini joriy etish zarurati va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari yoritib beriladi va suv xavfsizligini mustahkamlashga doir amaliy taklif va xulosalar keltiriladi.

***Kalit so'zlar:*** suv xavfsizligi, suv resurslari, irrigatsiya, iqlim o'zgarishi, O'zbekiston, 2030 strategiyasi, suv tanqisligi.

***Аннотация:*** В статье анализируется современное состояние водных ресурсов Узбекистана, проблемы обеспечения водной безопасности, которые могут возникнуть к 2030 году, угрозы, связанные с изменением климата, а также потребность в воде со стороны сельского хозяйства, промышленности и населения. Рассматриваются эффективность ирригационной системы, уровень управления водными ресурсами, необходимость внедрения водосберегающих технологий, приоритетные направления государственной политики, а также даются практические предложения и выводы по укреплению водной безопасности.



**Ключевые слова:** водная безопасность, водные ресурсы, орошение, изменение климата, Узбекистан, стратегия 2030, дефицит воды.

**Abstract:** This article analyzes the current state of water resources in Uzbekistan, potential water security challenges by 2030, threats posed by climate change, and water demand from agriculture, industry, and the population. It examines the effectiveness of the irrigation system, the level of water resource management, the need to implement water-saving technologies, and priority public policy areas. It also provides practical proposals and conclusions for strengthening water security.

**Keywords:** water security, water resources, irrigation, climate change, Uzbekistan, Strategy 2030, water scarcity.

O'zbekiston tabiiy-iqlim sharoitiga ko'ra suv tanqisligi yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. Amudaryo va Sirdaryo havzalariga kuchli darajada bog'liq bo'lgan suv ta'minoti, aholining tez o'sishi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining kengayishi va iqlim o'zgarishining keskinlashuvi 2030-yilgacha bo'lgan davrda suv xavfsizligi masalasini eng dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Mamlakatda yillik suv iste'moli 50-53 mlrd m<sup>3</sup> atrofida bo'lib, uning qariyb 90% i qishloq xo'jaligi ehtiyojiga sarflanadi. Nafaqat iste'molning yuqoriligi, balki suv infratuzilmasining eskirganligi, yo'qotishlarning yuqoriligi va suvni hisobga olish tizimining takomillashmaganligi suv xavfsizligi masalasini yanada murakkablashtirmoqda. Shu bois O'zbekiston uchun 2030-yilgacha suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarini joriy etish, suv tejash madaniyatini rivojlantirish va iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirishga qaratilgan strategik yondashuvlar zarur.

O'zbekiston suv resurslarining asosiy qismini transchegaraviy daryolardan oladi. Bu holat suv xavfsizligi masalasini nafaqat ichki siyosat, balki mintaqaviy hamkorlik bilan bevosita bog'lab qo'yadi.

Asosiy statistik ko'rsatkichlar:

- Yillik umumiy suv resurslari: 50-53mlrd m<sup>3</sup>
- Qishloq xo'jaligi ulushi: 90-91%



- Ichimlik suvi ta'minoti qamrovi: Shahar joylarda 90% qishloqlarda 70-75% atrofida
- Irrigatsiya maydonlari: 4,3 mln gektar
- Suv infratuzilmasining eskirish darajasi: 40-60%
- Samarasiz yo'qotishlar: ayrim kanallarda 25-30% gacha

Respublikada suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi shuni ko'rsatadiki, 1 gektar yerga sarflanadigan suv miqdori rivojlangan davlatlardagidan 2-3 baravar yuqori. Iqlim o'zgarishi tufayli yozning cho'zilishi, o'rtacha havo haroratining 1-1,5 gradusga oshishi, bug'lanishning kuchayishi, yog'ingarchilikning kamayishi kutilmoqda. Bu jarayonlar daryo suvlarining kamayishiga va umumiy resurs bosimining ortishiga sabab bo'ladi.

2030-yilgacha suv xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar bir nechta hisoblanadi va ular:

- Aholining ko'payishi, ichimlik suvi ta'minoti, uy-joy qurilish va sanoat korxonalarining ko'payishi suvga bo'lgan talabni yildan-yilga oshirmoqda.
- Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotida katta o'rinni egallaydi. Paxta, g'alla, sabzavot, bog'dorchilik ekinlarining tarkibi suvga talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Ko'plab hududlarda sug'orish tizimlari eski bo'lib, bir necha yillardan buyon kapital ta'mir ko'rmagan.
- Bugungi kunda zamonaviy nasos stansiyalariga ehtiyoj yuqoriligi ko'rinib turibdi. Ko'plab kanallar ochiq holda bo'lgani uchun suvning katta qismi bug'lanib ketadi va tuproqqa singib yo'qoladi.
- Amu va Sirdaryo suvlarining katta qismi qo'shni davlatlardan oqib keladi. Bu esa suv taqsimoti bo'yicha kelishuvlarni mustahkamlashni talab qiladi.

O'zbekistonning 2030-yilgacha suv xavfsizligi bo'yicha imkoniyat va tahdidlari

- Suv tanqisligi natijasida qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishi, aholining ayrim hududlarda ichimlik suvi bilan ta'minlanishidagi uzilishlar, energetika sektori - nasos stansiyalarining katta energiya iste'moli, ekotizimlarning



degradatsiyasi bularning barchasi O'zbekistonning 2030-yilgacha suv xavfsizligi bo'yicha tahdidlar bo'lib qolmoqda.

- Suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, irrigatsiya tizimlarini zamonaviylashtirish, raqamli nazorat va monitoring tizimlarini yo'lga qo'yish hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bularning barchasi O'zbekistonning suv xavfsizligi bo'yicha imkoniyatlar sirasiga kiradi.

O'zbekistonning suv xavfsizligi bo'yicha xulosa va strategik takliflar:

- Suv tejash texnologiyalarini keng joriy etish bunda:
  - Tomchilab sug'orish,
  - Purkagich usullari,
  - Zovur tizimlarini rekonstruksiya qilish orqali erishsa buladi.
- Raqamlashtirilgan suv boshqaruvi joriy etish yani, suv hisoblagichlar, onlayn monitoring tizimi, sun'iy intellekt asosida suv taqsimotini optimallashtirish kabi boshqaruvlarni keng joriy qilish.
- Qishloq xo'jaligida ekin tuzilmasini optimallashtirish kerak yani, suv talab qiluvchi ekin maydonlarini kamaytirish hamda yuqori yer rentabellikli, kam suv iste'mol qiluvchi ekinlar ulushini oshirish kerak.
- Suv almashinuvi bo'icha qo'shma komissiyalar hamda suvdan foydalanish bo'yicha kelishuvlarni angilash orqali mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish kerak.

O'zbekiston uchun suv xavfsizligi masalasi aqin 5-10 yil ichida eng dolzarb strategik yo'nalishga aylanadi. Iqlim o'zgarishi fonida mavjud suv resurslari bosim ostida qolmoqda shuning uchun:

- Irrigatsiya tizimlarini modernizatsia qilish,
- Suv tejash texnologiyalarini keng joriy etish,
- Suvni hisobga olish tizimini joriy etish,
- Transchegaraviy suv siyosatini mustahkamlash

2030-yilgacha bo'lgan davr uchun eng muhim vazifalardir.



Ushbu strategik yondashuvlar amalga oshirilsa, O'zbekiston suv tanqisligi xavflarini kamaytiradi va suv resurslaridan barqaror foydalanish tizimini shakllantira oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi- "suv resurslaridan foydalanish bo'yicha yillik statistik ma'lumotnoma", Toshkent,2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi – "O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan suv xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi", rasmiy hujjat,2023.
3. Davlat statistika qo'mitasi – "O'zbekistonning suv xo'jaligi bo'yicha statistic ko'rsatkichlari", Toshkent, 2024.
4. Q.X.Xudoyqulov- "Sug'oriladigan dehqonchilikda suv resurslaridan samarali foydalanish ", ilmiy risola, Toshkent,2022.
5. S.Mamatqulov, B.Sayfullayev- "Suv tanqisligi sharoitida irrigatsiya tizimlarining samaradorligi", "Ekologiya va hayot" jurnali, N2, 2024.
6. Markaziy Osiyo Suv Komissiyasi(MASHK)- "Amu va Sirdaryo havzalarida suv taqsimoti bo'yicha yillik ma'lumotnoma", 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi- "Suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishning ilmiy asoslari", Toshkent,2023.